



TOSHKENT VA FARG'ONA MILLIY KOSTYUMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Mamaxanova Zebuniso Obidovna

Namangan muhandislik texnologiya instituti Dizayn kafedrası assistenti

Annotatsiya: Maqolada Toshkent va Farg'ona kostyumining kelib chiqish tarixi o'ziga xos uslubi rivojlanish bosqichlari o'rganilgan. Zamon talablari asosida shakllanayotgan yangi eskizlar ustida olib borilayotgan yangi model kolleksiyalarini yaratish uslublari tadqiq etildi.

Kalit so'zlar: Toshkent, Farg'ona, milliy, libos, madaniyat, urf-odat, hunarmandchilik, uslub, atlas, adras, beqasam, do'ppi, eskiz.

Abstract: The article examines the history of the origin of Tashkent and Fergana costume and the stages of its development. Methods of creating new model collections based on new sketches formed based on the requirements of the times were researched.

Key words: Tashkent, Fergana, national, dress, culture, tradition, craft, style, atlas, address, bekasam, hat, sketch.

Kirish. Millatning muhim tashqi ramziy timsoli sifatida shakllanib kelayotgan milliy liboslar O'zbek xalqining ajoyib madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Mamlakatimiz hududlari o'ziga xos milliy liboslar madaniyatiga ega bo'lib, bu milliy liboslarning badiiy dizayni boy manbaalarni mujassam etadi. Ushbu maqola Toshkent va Farg'ona hududida qadimdan rivojlanib kelayotgan milliy liboslar elementlari tizimlarini loyihalash uslublari va uning o'ziga xos tomonlarini ochib berishga qaratilgan. O'zbek xalqining milliy o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi qadimgi davrlarda yaratilgan va hozirgi kunlarda foydalaniladigan, madaniyati va tarixi bilan uzviy bog'liq bo'lgan kiyimlar haqida fikr yuritar ekanmiz har bir mintaqa uchun o'ziga xos farq va xususiyatlar mavjud. Toshkent viloyati qadimdan Buyuk ipak yo'lidagi ilmfan, hunarmandchilik, madaniyat taraqqiy etgan makonlardan biri bo'lgan. Xo'jakent yaqinidagi g'ordan topilgan tosh davriga mansub odam suyagining qoldiqlari va qoyalardagi suratlar bu vohada qadimda ibtidoiy odamlar yashaganligidan dalolat beradi [1].

O'zbek xalqining o'tmishdagi kiyim-kechaklari to'g'risidagi ma'lumotlarni arxeologik qazilmalar jarayonida topilgan qadimiy katta devoriy suratlar, turli buyumlarga tushirilgan tasvirlar, o'rta asrlardagi kitob minyaturalari beradi. O'rta asrlarga oid minyaturalar o'zbek kiyimlarining o'ziga xos uslubi, ya'ni tipi shakllanganligi va ular keyingi davrgacha saqlanganligini ko'rsatuvchi noyob na'munalardir. An'anaviy o'zbek libosi asosan, ustki ko'ylak, ishton va chopondan, boshga do'ppi, oyoqqa mahsi-kalish yoki etikdan iborat bo'lgan. Erkaklar, ayollar va bolalar kiyimlari bichimining deyarli bir xilligi ularning qadimiylikidan darak beradi.



Bunday liboslar oddiy usulda, ba'zan qaychisiz yaxlit matodan yirtib tikilgan. Bir parcha gazlamani ikkiga buklab, yelka tomonga ko'ndalangiga ikki yeng bilan bir parcha to'rt burchak xishtak (qo'ltig'iga solingan) tikib kiyilavergan.

Farg'ona viloyati O'zbekistonning qadimgi madaniyat o'choqlaridan biri. Viloyat hududida topilgan tosh davri manzilgohlari va qoyatoshlarig solingan suratlar vodiya odamlar eng qadimgi davrlardan beri yashab kelganliklaridan darak beradi. Erkak-ayol va katta-kichiklar kiyimlari bichimining deyarli bir xilligi ularning qadimiyligidan darak beradi. Bunday liboslar oddiy usulda, ba'zan qaychisiz va ulgusiz yaxlit matodan yirtib tikilgan. Bir parcha gazlamani ikkiga buklab yelka tomonga ko'ndalangiga ikki yeng bilan bir parcha to'rtburchak xishtak tikib ko'ylak qilishgan.[3]

O'zbek millatining urf-odatlarini nafaqat oilada balkim har bir sohada o'z aksini topganligi maqsadga muvofiq hisoblanadi, misol tariqasida: respublikamiz viloyatlari va tumanlarida faoliyat olib brayotgan choyxonalar, masjidlarda o'z aksini topgan. Milliy an'analarimizni targ'ib etishda to'y marosimlardagi nahorgi osh, milliy bayramlar, navro'z bayrami, kelin salom va boshqa tadbirlarda alohida o'ziga xos bo'lgan urf-odatlar mavjud.



1-rasm. Toshkent Farg'ona milliy liboslari uchun eskiz na'munasi.

Yuqorida keltirilgan eskizlarda ham atlas adras matolarining yorqin na'munalaridan foydalanilgan va aksessuarlar bilan to'ldirilgan. Toshkent Farg'ona yo'nalishidagi liboslar yangi eskizlari ustida ish olib borildi va bir qancha eskiz na'munalaridan asosiy eskizlar tanlab olindi. O'zbek milliy liboslari deganda ko'z oldimizda atlas, adras, beqasam kabi rang-barang, nafis va go'zal matolardan tikilgan liboslar gavdalanadi. Asrlar davomida shakllanib kelgan va san'at darajasiga ko'tarilgan hunarmandchilikning bu turi hozirgi kunga kelib haqiqiy ommaboplik va

mashhurlik kasb etdi. "E'tibor beringa, har bir davr libosi o'sha zamon va har qaysi millat madaniyatining ko'zgidir. Zero, har bir millat libosiga qarab turli davrlarda kishilarining kiyinishi, odob me'yorlarini bilib olish mumkin. Milliy liboslar har qanday xalqning qiyofasini aks ettiradi degan gapda jon bor. Sababi, ajdodlar tomonidan yaratilib, asrlar davomida sayqallanib kelingan liboslar milliy meros namunasidir.



2-rasm. Toshkent Farg'ona uslubida yaratilgan milliy liboslar na'munasi

Hozirgi o'zbek sarpolari zamonaviy tipda bo'lib, ayniqsa yevropacha kiyim-kechaklarning kirib kelishi bilan tavsiflanadi. Milliy kiyimlar ko'proq qishloqda, alohida ayollar sarposida ancha muntazam saqlangan. Shahar aholisining ko'pchiligi yevropacha kiyinadi.

O'zbek milliy libosi jahonda o'z o'rniga ega. Masalan dunyoning turli joylaridan kelgan mexmonlar O'zbekistoni milliy libosi va madaniyatiga katta baxo berishyapti va halqaro moda ko'rgazmalarida ham yuksak natijalarga erishmoqda(2-rasm). O'zbek milliy libosi va madaniyati o'zgacha jozibadordir. Milliy libosimiz Sovet ittifoqi davrida kamsitilgan bo'lsada mustaqillikdan so'ng libosimizga e'tibor kuchaydi va yuksaldi. Hozirda o'zbek tikuvchilari chet mamlakatlarga borib ularga o'zbek libosini o'ziga hos jihatlarni namoyon qilishmoqda. O'zbekistonga mehmon bo'lib kelgan sayohatchilar vatanimizni tarixiy obidalarini, memorchilik san'atini, milliy urf-odatlarimizni katta qiziqish bilan e'tibor beradilar. Ular mustaqillik bayramini, navro'zni, hosil bayramini va o'zbekona to'ylarni guvohi bo'ladilar. Estalik sifatida atlas, do'ppi, belbog', chapon va boshqa memorchilik uslubida yasalgan estalik sovg'alarini olib ketadilar.

Xulosa:



Bugungi kunda Xalq turmushining boshqa sohalari singari milliy liboslarni o'rganish har bir xalqning etnik tarixi va madaniyatini, uning boshqa xalqlar bilan o'zaro aloqalarini tadbiq etish bilan chambarchas bog'liqdir. U moddiy va ma'naviy yodgorliklar ichida xalqlarning milliy o'ziga xosligini aks ettiruvchi va etnik belgilarini ko'rsatuvchi mezon ham hisoblanadi. Shu ma'noda libos tarixini o'rganish yer kurrasida mana necha ming yillardan beri yashab kelayotgan xalqlar boy madaniy merosi, shu bilan birga ularning an'analari, yashash tarzi haqida ma'lumot ham beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. J.S.Ergashev. O.B.Mamadaliyeva. M.A.Nazarova. "Kostyum tarixi". Namangan-2019
2. G.K.Xasanbayeva "Libos dizayni" ma'ruza matni. - T.: TTYeSI bosmaxonasi, 2011
3. D.Rahmatullayeva, ILXodjayeva, F.Ataxanova Libos Tarixi "Sano-standart" nashriyoti Toshkent – 2015.
4. M.Sh.Jabborova. "Tikuvchilik texnologiyasi" T., O`zbekiston, 1994 yil
5. T.A.Ochilov, N.G.Abbasova, F.L.Abdullina, Q.I.Abdulniyozov. "Gazlamashunoslik". -T.:Cho`lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2010 y.
6. N.S. Gaipova, M.A. G`afurova, Q.M. Abdullayeva. "Tikuv buyumlarini loyihalash, modellash, badiiy bezash". T.: Cho`lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2006 y.